

## EKTOPARAZITOZLARGA QARSHI KURASHISH TADBIRLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

**Kamalova A.I. – v.f.f.d. (PhD) dotsent v.v.b.,  
Ismoilov A.Sh. v.f.f.d. (PhD) assistent.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi ayrim tumanlari sharoitida qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ektoparazitlar qoramollarda parazitlik qilishi natijasida kelib chiqadigan ektaparazitoz kasalliklarga qarshi kurashishning iqdisodiy samaradorligi batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ektoparazit, iksod kana, qoramolchilik, ektoparazitlar, iqdisodiy samaradorlik, piretroid preparatlari, dezakarizatsiya, Alpha shakti, davolash usullari, profilaktika.

**Kirish.** Respublikamiz iqtisodiyotini yuksaltirishda qoramolchilik xo'jaliklarini rivojlantirish alohida o'ringa ega. qoramolchilikni rivojlantirishda va rentabelligini oshirishda mas'uliyati cheklangan jamiyat, fermer hamda dehqon xo'jaliklarida qoramollar bosh sonini ko'paytirish, ularning mahsuldarligini oshirish, sog'lom buzoq olish, ularni to'g'ri parvarishlash, turli kasalliklardan himoya qilish kabi omillar va tadbirlarga bog'liq.

Bunda qoramollarni turli xildagi yuqumli va yuqumsiz kasalliklardan, ularni tashuvchilaridan, ayniqsa ektoparazitlardan himoya qilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ektoparazitlar sog'in sigirlarda parazitlik qilishi natijasida sut va go'sht mahsuldarligi keskin pasayib ketadi. Buni oldini olish va qarshi kurashish tadbirlarini o'z vaqtida va samarali olib borish sigirlarning sut mahsuldarligini kamayishini bartaraf qilinishda muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog'iston sharoitidagi qoramolchilik fermer xo'jaliklarida ektoparazitlariga qarshi kurashish natijasida sog'in sigirlarning sut mahsuldarligini kamayishini insektoakaritsid preparatlar yordamida bartaraf qilinishini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqot materiali va uslublari.** Qoraqalpog'iston Respublikasi ayrim tumanlari qoramolchilik xo'jaliklarida sog'in sigirlar ektoparazitlariga qarshi qo'llanilgan preparatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash borasida tadqiqotlar maxsus o'tkazilgan tajribalar asosida, ya'ni ektoparazitoz kasalliklar

ta'sirida sigirlarning sut mahsuldorligini kamayishini insektitsidlar yordamida bartaraf qilinishi natijasida olingan foydani aniqlash yo'li bilan amalga oshirildi.

Preparatning iqtisodiy samaradorligi “Временная методика определения экономической эффективности ветеринарных мероприятий по профилактике и ликвидации болезней сельскохозяйственных животных” (ГУВ СССР, 8 августа 1969 г., изд. «Колос», Москва 1969), va Ro‘zimurodov A.R. tavsiya etgan “Экономическая эффективность обработок животных препаратами” (ВКН.: Болезни с/х животных. Том 29, ч.2., 1979, 1980 г.) usullari asosida o‘rganildi.

**Tadqiqot natijalari.** Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqolpog‘iston Respublikasi Nukus tumanidagi “Dami-ata” fermer xo‘jaligidagidagi sog‘in sigirlarda olib borildi.

Buning uchun tajribalar iksod kanalarni tabiatda eng ko‘paygan vaqtida amalga oshirildi. Bunda Sinov tajriba ishlari Nukus tumanidagi “Dami ata” fermer xo‘jaligidagi sigirlarning sut mahsuldorligini kamayishini zararalangan hayvonlarni dezakarizatsiya yordamida bartaraf qilinishi natijasida olinadigan foydani tajriba yo‘li bilan o‘rganildi. aholi qaramog‘idagi shaxsiy 20 bosh sog‘in sigirlarda maxsus tajriba o‘tkazildi, ya’ni tajriba va nazorat guruhlari uchun 10 boshdan sog‘in sigirlar ajratilib, 25 kun davomida ularning kunlik sut mahsuldorligi hisobga olinib, o‘rtacha mahsuldorlik ko‘rsatkichi aniqlandi. Keyin tajriba guruhidagi ektoparazitlar bilan zararlangan 10 bosh sog‘in sigir “Alpha-shakti” 10% EC piretroid preparatining 0,03 foizli suvli emulsiyasi (dozasi) bilan har bir boshga 3,5 litrdan maxsus uskuna (purkagich) yordamida sepildi (1-jadval).

Tajribada har bir bosh sigirga 3,5 litr suvli eritma Alpha-shakti” 10% EC sintetik piretroid preparatining 0,03 foizli suvli emulsiyasi qo‘llanildi.

Eksperimental tajribalar mobaynida qoramollarning ektoparazitzlarga qarshi “Alpha-shakti” 10% EC piretroid preparatining 0,03 foizli suvli eritmasi qo‘llanilgandan so‘ng tajriba va nazorat guruhidagi 10 bosh sog‘in sigirlarning har kunlik o‘rtacha sut berish ko‘rsatkichi 25 kun mobaynida har besh kunlikda kuzatib borildi. Tajriba guruhidagi mollarning preparat qo‘llanilgandan so‘ng, birinchi besh kunlikdagi mahsuldorligi hisobga olinmadi, ularning sut berishi ikkinchi besh kunlikdan boshlab hisoblandi. Dorilangan sigirlar birinchi besh kunlikda ektoparazitlardan tozalanishi lozim edi. Tajriba guruhidagi 10 bosh mollar tanasiga ektoparazitzlarga qarshi preparat qo‘llanilmasdan oldin ya’ni, tajribagacha o‘rtacha 4,2 l. sut sog‘ib olindi.

Mollarga ektoparazitlarga qarshi preparat qo‘llanilgandan so‘ng 10 kun o‘tgach sigirlarning o‘rtacha sut berish mahsuldorligi hisoblanganda bir bosh sigirdan o‘rtacha 4,9 litrga sut sog‘ib olindi. Bir bosh sog‘in sigirning sut

mahsuldorligi 0,7 litrga oshganligi kuzatildi. Tajriba guruhidagi mollarning kunlik sut berish ko'rsatkichi, preparat qo'llashdan oldingiga nisbatan 7 litrga ko'payganligi, bu ko'rsatkich 25 kun mobaynida 175 litrga oshganligi kuzatildi. Umuman olganda, ektoparazitlardan davolangan bir bosh sog'in sigirning kunlik sut mahsuldorligi 0,7 litrga, 25 kunda esa bu ko'rsatkich 17,5 litrga oshganligi tajribalar mobaynida aniqlandi.

Nazorat guruhidagi sigirlarning sut mahsuldorligida o'zgarish kuzatilmadi.

Bir bosh sog'in sigirni xo'jalik veterinariya vrachi tomonidan rejali ravishda "Alpha-shakti" 10 % EC piretroid preparati bilan 1 karra dezakarizatsiya qilish (davolash) xarajatining qiymati 5152 so'mni tashkil etdi (1, 2-jadvallar).

1-jadval

### **Bir bosh kasal sigirni "Alpha-shakti" 10 EC piretroidi bilan dezakarizatsiya qilish xarajatlari qiymati**

<b>T.r.</b>	<b>Moddalar</b>	<b>Qiymati (sum)</b>	<b>Foiz</b>
1.	Maosh (3 kishi)	1812	35,2
2.	Preparat narxi (1 l - 95000 sum, bir boshga - 12 ml)	1140	22,1
3.	Boshqa harajatlar (aloqa, ish kiyimi, mahnatni muhofaza qilish va bosh.)	2200	42,7
	<b>Jami:</b>	<b>5152</b>	<b>100</b>

2-jadval

### **Sog'in sigirlarni dezakarizatsiya qilishning samaradorligi**

<b>T.r.</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Tajribada</b>	<b>Nazoratda</b>
1.	Mol soni	bosh	10	10
2.	Tajriba muddati	kun	20	20
3.	Dezakarizatsiya	marta	1	-
4.	O'rtacha ku'nlik sog'in			
	a) tajribagacha	kg	7,9	7,7
	b) tajriba mobaynida	kg	8,5	7,7
5.	Sog'indagi farq	kg	0,6	0
6.	Tajriba mobaynida sigirlarning o'rtacha sut mahsulotini ko'payish miqdori	kg	0,6	
7.	Tajriba davomida olingan			

	qo'shimcha mahsulotni umumiy miqdori	kg	120,0	
8.	1 kg sut narxi	sum	3000	
9.	Qo'shimcha olingan sut qiymati	sum	360 000	
10.	Dezakarizatsiya xarajatlari	sum	51520	
11.	Iqtisodiy samara	sum	307480	
12.	Bir so'mga olingan sof daromad	sum	5,9	

Sog'in sigirlarni "Alpha-shakti" 10 % EC piretroidi bilan ektoparazitozlardan muhofaza qilinganda xarajat qilingan 1 so'm 5,9 so'm sof daromad keltiradi. Bunda sigirlarning sut mahsuldorligi o'rtacha 7,6 foizga ko'payish aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asosan xulosa qilish mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus va Qorao'zak tumanlari ekoton va ekotoplarida iksod kanalarining Hyalomma (H.anatolicum, H.plumbeum, H.scupense, H.detritum), Rhipicephalus (Rh.bursa, Rh.turanicus), Haemaphysalis (H.sulcata, H.punctata), Dermacentor marginatus, Ixodes (I.ricinus) avlodlari vakillari qoramollar organizmida parazitlik qilishi qayd qilindi. Ular orasida iksod kanalaridan Hyalomma va Rhipicephalus avlodlari dominant turlar ekanligi aniqlandi.

**Xulosa.** 1. Ektoparazitozlar mavsumiy kasallik bo'lib, deyarli barcha turdag'i hayvonlarda, asosan qishloq xo'jaligi hayvonlarida uchrashi aniqlandi. Mazkur kasallikning boshlanish davri bahor mavsumiga to'g'ri kelib, yoz mavsumida ularni uchrash dinamikasining eng yuqori darajaga chiqishi kuzatiladi.

2. Chorvachilik fermalari, dehqon xo'jaliklari va shaxsiy xonadonlarda qoramollarning ektoparazitozlariga qarshi kurashishda va ektoparazitozlarni davolashda Hindistonda ishlab chiqarilgan "Alpha-shakti" 10 % EC sintetik piretroid preparatining 0,03 foizli suvli eritmasini 4-5 l/bosh hisobida qo'llash yuqori insektoakaritsid va davolovchi samara berishi aniqlandi.

3. Qoramollarni ektoparazitozlariga qarshi o'tkazilgan davolash-profilaktika chora-tadbirlari natijasida sog'in sigirlarni sut mahsuldorligi o'rtacha 7,6 foizga ko'payishi yoki iqtisodiy samaradorlik sarf qilingan 1 so'm xarajatga 5,9 so'm daromad keltirishi aniqlandi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pulatov, F. S., Rakhimov, M. Y., Ismoilov, A. S., Boltayev, D. M., Kamalova, A. I., & Djalolov, A. A. (2022). Fauna and phenoecology of zooparazites. *Annals of forest research Scopus journal*, 65(1), 854-863.
2. Pulatov, F. S., Rakhimov, M. Y., Ismoilov, A. S., Boltayev, D. M., Kamalova, A. I., & Djalolov, A. A. (2023). Ecogenesis of ECTO and Endoparasites in Animals. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10, 2238-2245.
3. Пулатов, Ф., Рахимов, М., Испоилов, А., Болтаев, Д., Камалова, А., & Джалолов, А. (2022). Фауна и феноэкология зоопаразитов. *in Library*, 22(4), 855-863.
4. Рахимов, М., Камалова, А., & Мавлонов, С. (2023). Изучение заболевания иксодидозом крупного рогатого скота в экспериментальных экспериментах. *in Library*, 3(3), 18-21.
5. Ainura, K. (2023). DISTRIBUTION OF ECTOPARASITES IN LIVESTOCK FARMS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN. In *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium)* (Vol. 1, pp. 193-194).
6. Ainura, K. (2023). STUDY OF THE DISEASES IXODIDOSIS IN EXPERIMENTAL EXPERIMENTS. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(28), 190-196.
7. Мавланов, С., & Камалова, А. (2023). ҚОРАМОЛЛАРНИ ИКСОДИДОЗ КАСАЛЛИГИНИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАЖРИБАЛАРДА ЎРГАНИШ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 1755-1761.
8. Мавланов, С., Камалова, А., & Маматкулов, У. (2022). Экология энтомофагов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 267-271.
9. Иргашев, У. К., Холов, Ш., Камалова, А. И., & Мавланов, С. И. (2021). Меры борьбы против эктопаразитов.
10. Kamalova, A. I. (2024). THE SIGNIFICANCE OF ECHINOCOCCOSIS IN VETERINARY MEDICINE AND HUMAN LIFE. *Creative Commons Attribution 4.0 International License.*, 1(5), 90-95.
11. Мавланов, С., Камалова, А., Пулотов, Ф., & Испоилов, А. (2024). Исследование остатка «АЛЬФА-ШАКТИ» 10% ЭК в коровьем молоке. *in Library*, 2(2), 201-205.
12. Рахимов, М., Испоилов, А., Шеркулов, А., & Камалова, А. (2024). Фауна и сезонная динамика симбионтов на пастбищах. *in Library*, 2(2), 30-33.

13. Камалова, А., Мавланов, С., & Исмоилов, А. (2024). Исследование остатков препарата «АЛЬФА-ШАКТИ» 10% ЭК в молоке крупного рогатого скота. *in Library*, 1(3), 201-205.
14. Sarsenbaeva, G. B., & Kamalova, A. I. (2024, November). QARAMALLARDA AKTINAMIKOZ KESELLIGIN XIRURGIK USILDA EMLEW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223149>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 143-146).
15. Jarilqaǵanova, G. J., & Kamalova, A. I. (2024, November). TAWIQLARDA KOLIBAKTERIOZ KESELLIGINIŃ ETIOLOGIYASI HÁM ALDIN ALIW USILLARIN ÚYRENIW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223189>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 146-149).
16. Kamalova, A. I., Mavlanov, S. I., & Ismoilov, A. S. (2024). EKTOPARAZITLAR BILAN ZARARLANGAN QORAMOLLAR QON KO ‘RSATKICHLARI. *Yangi O ‘zbekiston ustozlari*, 2(29), 117-121.
17. Ismoilov, A. S., & Kamalova, A. I. (2025, April). ZOOFIL HASHAROTLARGA QARSHI KARATIN-50 PREPARATINING INSEKTITSID SAMARADORLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15360108>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 127-130).
18. Kamalova, A. I., & Ismoilov, A. S. (2025, April). QORAQALPOG'ISTON CHORVACHILIGIDAGI EKTOPARAZITLAR EKOLOGIYASI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15360158>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 138-142).
19. Джалолов, А., & Исмаилов, А. (2024). Инсектицидные свойства биоинсектицида против bovicola ovis. *in Library*, 1(3), 159-163.
20. Djalolov, A. A., Pulotov, F. S., & Ismoilov, A. S. (2024). ALPHA-SHAKTI PREPARATINING QO ‘YLARNING JUNXO ‘RLARIGA NISBATAN INSEKTIDSID TA’SIRI. *Yangi O ‘zbekiston ustozlari*, 2(29), 42-45.
21. Pulotov, F. S., Boltayev, D. M., Djalolov, A. A., & Ismoilov, A. S. (2024). ECHKILAR ORASIDA EKTOPARAZITLARNING TARQALISHI. *Yangi O ‘zbekiston ustozlari*, 2(29), 55-59.
22. Dzhhalolov, A. A., Pulotov, F. S., & Ismailov, A. S. (2024). Insecticidal property of bioinsecticide against bovicola ovis. *European Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(7), 159-163.
23. Исмоилов, А. (2016). Зоофильные насекомые в биоценозах. *in Library*, 16(3), 1044-1045.

24. Исмоилов, А. (2016). Экология зоофильных насекомых. *in Library*, 16(1), 26-27.
25. Исмоилов, А. (2017). Разнообразие и фенология зоофильных насекомых в условиях животноводческих ферм. *in Library*, 17(1), 18-19.
26. Исмоилов, А. (2018). Экология насекомых рода *Fannia* R.-D. в экотопах. *in Library*, 18(2), 31-32.
27. Исмоилов, А., & Исаев, З. (2021). Распространение синбовильных и зоофильных насекомых в антропогенных биоценозах. *in Library*, 21(4), 1-8.
28. Исмоилов, А., & Мавланов, С. (2023). Экология синбовиловых мух. *in Library*, 3(3), 408-411.
29. Исмоилов, А., & Рузимородов, А. (2021). Борьба с зоофилами и мухами синбовил в домашнем скоте и их борьба с ними. *in Library*, 21(1), 60-63.
30. Исмоилов, А. (2022). Фауна мух синбовила и воздействие на них препарата альфа-шакти. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 126-131.
31. Пулотов, Ф., & Исмоилов, А. (2021). Фауна зоопаразитов. *in Library*, 21(1), 187-189.
32. Рахимов, М., Пулотов, Ф., & Исмоилов, А. (2023). Иксодидоз крупного рогатого скота и овец. *in Library*, 3(3), 1277-1279.
33. N.P.Dauletbaev, & R.M.Tashtemirov. (2025, май 7). TÚYETAWÍQLARDÍN TARQALÍWÍ HÁM SAQLAW SHARAYATÍ. "ARALBOYÍ AYMAĞÍNDA SHARWASHÍLÍQTA INNOVACION TEKNOLOGIYALAR HÁM RAWAJLANDÍRÍWDÍN KELESHEGI" atamasındaǵı Respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya (SamVMChBU\_Nukus\_filiali), Nukus, Republic of Karakalpakstan. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15360042>